

## YANGI O'ZBEKISTONDA SUD HUQUQ TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Nosirova Dilfuza Nabiyevna

*Andijon viloyati Yuridik tehnikumi yuristlar uchun xorijiy til o'qituvchisi 3 chi darajali yuris.*

**Alqosimov Ne'matjon Kozimjon o'g'li**

*Andijon viloyati Yuridik tehnikumi Sud-huquqiy faoliyati 2-bosqich 115-guruh o'quvchisi*

**Annotatsiya:** yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Ya'ni, "Inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda. Eng asosiysi: Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan "davlat – jamiyat – inson" tamoyili "inson – jamiyat – davlat" tamoyiliga o'zgartirilmoqda.

**Kalit so'zlar:** milliy, huquq, tizim, inson, erkinliklar, qadri, qadriyat, taraqqiyot, strategiya, davlat, jamiyat.

Prezident Shavkat Mirziyoev taqdim etgan Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi loyihasida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradi.

Mustaqillik yillarda amalga oshirilgan islohotlar sud-huquq sohasini demokratlashtirish va erkinlashtirishga, sud hokimiyatining fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasidagi roli va ahamiyatini oshirishga zamin yaratdi.

Shu bilan birga, mamlakatni rivojlantirishning zamонавиј талаблари ва стратегикустувор vazifalari sud-huquq tizimini yanada takomillashtirishni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni mazkur sohadagi davlat siyosatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarib, quyidagi uchta asosiy ustuvor yo'nalishlarni belgilab berdi:

- sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash;
- fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish;
- odil sudlovga erishish darajasini oshirish.

Mazkur ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining muhim vazifalari etib:

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112-moddasida belgilangan sudyalar mustaqilligi, ularning faqat qonunga bo'y sunishi va odil sudlovni amalga oshirish borasidagi faoliyatiga aralashganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipiga og'ishmay amal qilinishini ta'minlash;

• fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga tajovuz qilish holatlari yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rish, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish tartibini buzish va sansalorlikka yo'l qo'ymaslik;

- tegishli axborotni o‘z vaqtida jamoatchilikka yetkazish orqali faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta’minalash, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda aholi bilan hamkorlik samaradorligini oshirish;
- huquqni qo’llash amaliyoti va amaldagi qonunchilikni takomillashtirish orqali tizimli kamchilik va qonunbuzilishlarni aniqlash va bartaraf etish, ish faoliyatiga ilg‘or ilmiy texnika vositalari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish;
- idoraviy nazoratni kuchaytirish, xodimlar o’rtasida suiste’molchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olish va ularga chek qo'yish, kadrlar tarkibini sifat jihatidan yaxshilash, kadrlarni tanlashning eng munosib nomzodlarni ishga qabul qilishni ta’minalaydigan zamonaviy mexanizmlarini joriy etish belgilandi.

Farmonga muvofiq sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minalash, kasbiy nufuzini oshirish, yuqori malakali va samarali faoliyat yurituvchi sud korpusini shakllantirish maqsadida ilk bor sudyalarning vakolat muddatlari qayta ko’rib chiqildi.

Xususan, sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o’n yil muddatga, shundan so‘ng muddatsiz tayinlash (saylash)ni nazarda tutuvchi tartib joriy etildi.

Kiritilayotgan bu o‘zgartishlar xalqaro standartlar va rivojlangan demokratik davlatlarning ilg‘or tajribasiga to‘liq mos keladi.

Shunday qilib, Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo’ljallangan taraqqiyot strategiyasida quyidagi yettita ustuvor yo‘nalish nazarda tutilgan:

- birinchi ustuvor yo‘nalish – inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;
- ikkinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;
- uchinchi ustuvor yo‘nalish – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o’sish sur’atlarini zamon talablari darajasida ta’minalash;
- to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish – adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;
- beshinchi ustuvor yo‘nalish – ma’naviy taraqqiyotni ta’minalash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish;
- oltinchi ustuvor yo‘nalish – umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish;
- yettinchi ustuvor yo‘nalish – mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish.

Ikkinchi omil: Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilayotgani bejiz emas. Chunki, avvalo, Harakatlar strategiyasidagi har bir yo‘nalishni taraqqiyotning yangi bosqichida mantiqiy va izchil asosda rivojlantirish hamda yangi ustuvor yo‘nalishlarda muhim natijalarga erishish ko‘zda tutilmoqda.

Taraqqiyot strategiyasida asosiy e'tibor, bir tomondan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. <https://www.sof.uz/uz/post/o-zbekistonda-sud-huquq-tizimi-isloh-qilinadi>
2. <https://pravacheloveka.uz/oz/articles/jangi-zbekiston-taraiet-strategijasi-davlat-zhamijat-inson-tamojilidan-inson-zhamijat-davlat-tamojiliga-tilmoda>